

## DINIY MAZMUNDAGI MATERIALLARNI TARQATGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKNING HUQUQIY VA INSON HUQUQLARI NUQTAI NAZARIDAN TAHLILI

Xalillayeva Sayyora Sobit qizi

**DXX Toshkent shahri bo'yicha boshqarmasi xodimi kapitan**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17413090>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada diniy mazmundagi materiallar uchun javobgarlikning huquqiy asoslari, ularning ma'muriy va jinoiy turlari o'rtasidagi farqlanish hamda amaliyotdagi muammolar tahlil qilingan. Globallashuv sharoitida diniy mazmundagi materiallarning Internet orqali tez tarqalishi davlat xavfsizligiga tahdid soluvchi holatlar bilan bog'lanayotganligi ko'rsatib o'tilgan. Shu munosabat bilan, muallif Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 184<sup>2</sup>-moddasi va Jinoyat kodeksining 244<sup>1</sup>-moddasi o'rtasidagi normativ chegaralarning noaniqligini, ularni qo'llashda proportsionallik va adolat tamoyillari buzilishini ilmiy asosda yoritadi.

Tadqiqotda normativ-huquqiy, solishtirma va analitik metodlar qo'llanilgan bo'lib, Diniy ishlari bo'yicha qo'mita ekspertizasi, Oliy sud amaliyoti hamda xalqaro huquq tamoyillari tahlil qilingan.

Diniy materiallar bilan bog'liq javobgarlik inson huquqlariga zid emas, biroq u shaffof, aniq va differensial yondashuv asosida takomillashtirilishi zarur.

**Kalit so'zlar:** diniy mazmundagi materiallar, ma'muriy javobgarlik, jinoyat kodeksi, ekstremizm, diniy ekspertiza, inson huquqlari, proportsionallik, huquqiy asoslar, jinoyat va ma'muriy chegara, mutanosiblik, vijdon erkinligi, xalqaro huquq, Oliy sud amaliyoti, 184<sup>2</sup>-modda, 244<sup>1</sup>-modda.

**Аннотация:** В данной статье анализируются правовые основы ответственности за материалы религиозного содержания, различия между административной и уголовной ответственностью, а также проблемы, возникающие в правоприменительной практике. В условиях глобализации отмечается, что религиозные материалы, быстро распространяющиеся через Интернет, могут представлять угрозу государственной безопасности. В этой связи автор научно обосновывает неопределенность нормативных границ между статьей 184<sup>2</sup> Кодекса об административной ответственности и статьей 244<sup>1</sup> Уголовного кодекса, а также нарушение принципов пропорциональности и справедливости при их применении.

В исследовании использованы нормативно-правовой, сравнительный и аналитический методы; проанализированы заключения Комитета по делам религий, практика Верховного суда и международно-правовые принципы.

Ответственность, связанная с распространением религиозных материалов, не противоречит правам человека, однако должна быть прозрачной, четко регламентированной и основанной на дифференцированном подходе.

**Ключевые слова:** религиозные материалы, административная ответственность, уголовный кодекс, экстремизм, религиозная экспертиза, права человека, пропорциональность, правовые основы, административно-уголовная граница, соразмерность, свобода совести, международное право, практика Верховного суда, статья 184<sup>2</sup>, статья 244<sup>1</sup>.

**Annotation:** This article examines the legal foundations of liability for religious materials, the distinction between administrative and criminal responsibility, and practical challenges arising in law enforcement. In the context of globalization, religious materials rapidly disseminated through the Internet are noted to pose potential threats to national security. Accordingly, the author scientifically substantiates the ambiguity of normative boundaries between Article 184<sup>2</sup> of the Administrative Liability Code and Article 244<sup>1</sup> of the Criminal Code, as well as violations of the principles of proportionality and justice in their application.

The study applies normative-legal, comparative, and analytical methods; it analyzes the conclusions of the Committee for Religious Affairs, Supreme Court practices, and international legal principles.

The author concludes that liability associated with religious materials does not contradict human rights, but it must be transparent, well-defined, and based on a differentiated approach.

**Keywords:** religious materials, administrative liability, criminal code, extremism, religious expertise, human rights, proportionality, legal foundations, administrative-criminal boundary, proportional justice, freedom of conscience, international law, Supreme Court practice, Article 184<sup>2</sup>, Article 244<sup>1</sup>.

**Kirish:** Bugungi globallashuv sharoitida diniy mazmundagi materiallar Internet orqali tezkor tarqalish imkoniga ega bo'lib, ularning mazmuni ba'zida jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi g'oyalarni o'z ichiga olishi mumkin. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bunday materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatishni qat'iy tartibga soladi. Bu yo'nalishdagi asosiy normativ asoslar Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 184<sup>2</sup>-moddasi va Jinoyat kodeksining 244<sup>1</sup>-moddasi bilan belgilanadi. Tadqiqotda ushbu moddalarning amaliy qo'llanishi, inson huquqlari bilan uyg'unligi hamda tergov amaliyotidagi huquqiy bo'shliqlar ilmiy asosda tahlil qiladi.

**Adabiyotlar taxlili va metod:** Tadqiqot tayyorlashda normativ-huquqiy tahlil (Jinoyat va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslar, Vazirlar Mahkamasining 180-son qarori), solishtirma huquq (xoriy tajriba bilan qiyoslash), hamda analitik metod (Oliy sud qarorlari va Diniy qo'mita xulosalarini o'rganish) qo'llanildi. Ayniqsa, "Diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish hamda dinshunoslik ekspertizasini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom" (Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-apreldagi 180-son qarori) muhim o'rin tutadi.

**Muhokama:** Bugungi kunda Internet insonlar uchon axborot manbai, muloqot va fikr almashish vositasi sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Internet orqali har bir shaxs o'z fikrini erkin bayon qilishi va jahon miqyosidagi auditoriyaga yetkazishi mumkun.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasida "Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Davlat Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart sharoitlar yaratadi" deyilgan.<sup>1</sup>

Biroq, axborotni izlash, olish va tarqatishga bo'lgan huquqni cheklash faqat qonunga muvofiq hamda Konstitutsiyaning 33-moddasi 4-qismida ko'rsatilgan "konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini ijtimoiy ahloqni boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish,

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 33-моддаси

jamoat tartibini ta'minlash shuningdek davlat sirlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo'lgan doirada yo'l qo'yiladi".<sup>2</sup>

Vazirlar Mahkamasining 180-son qaroriga ko'ra, diniy mazmundagi har qanday material Din ishlari bo'yicha qo'mita ekspertizasining ijobiy xulosasisiz tayyorlanishi, olib kirilishi yoki tarqatilishi mumkin emas.<sup>3</sup> Ekspertiza materialda zo'ravonlikka da'vat, diniy adovat yoki murosasizlik, konstitutsion tuzumga tahdid, ekstremistik, separatistik yoki aqidaparast g'oyalar mavjudligini aniqlaydi. Bu tartib profilaktik mexanizm bo'lib xizmat qiladi<sup>4</sup>.

184<sup>2</sup>-modda shaxslar tomonidan diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatganlik uchun jarima sanksiyasini nazarda tutadi. Qonun mazkur harakatlar uchun bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravaridan 150 baravarigacha jarima belgilaydi.<sup>5</sup> Ammo bu modda tarkib jihatdan umumiy bo'lib, diniy materiallarning xavf darajasiga ko'ra tafovut kiritmaydi. Natijada, oddiy diniy risolani tarqatgan fuqaro ham, Oliy sudning tegishli qarori bilan O'zbekiston Respublikasida faoliyati taqiqlangan terroristik tashkilotga tegishli bo'lgan materiallarni tarqatgan shaxs ham bir xil javobgarlikka tortiladi. Bu esa huquqni qo'llashda adolat tamoyiliga zid holatni yuzaga keltiradi.

Farqlash tizimi qonun ustuvorligini mustahkamlaydi, ma'muriy amaliyotni xalqaro inson huquqlari standartlariga moslashtiradi va jamoat ishonchini oshiradi. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 184<sup>2</sup>-moddasida ruhsatsiz, lekin taqiqlanmagan diniy kontent bilan taqiqlangan kontentlar uchun belgilangan sanksiyalar o'rtasida aniq farq belgilanishi lozim.

Din ishlari bo'yicha qo'mita tomonidan materilarga nisbatan "Jamoat havfsizligi va jamoat tartibiga taxdid soluvchi" deb xulosa berilganda, ushbu materialni tarqatgan shaxs Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 184<sup>2</sup>-moddasida ko'rsatilgan huquqbuzarlikni sodir etganlikda ayblanib, javobgarlikka tortiladi.

Jinoyat kodeksining 244<sup>1</sup>-moddasi sarlavhasi "jamoat havfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish yoki namoyish etish" bo'lsa-da, bu ibora moddaning dispozitsiya qismida to'g'ridan-to'g'ri qayd etilmagan. Bu esa normativ huquqiy mos kelmaslik "kolliziya"ni yuzaga keltiradi.

Sarlavha – moddaning umumiy mazmunini ifodalaydi, ammo uning huquqiy norma sifatida majburiy kuchga ega qismi emas. Dispozitsiya esa normaning amaliy mazmuni, ya'ni faqat ular orqali jinoyat tarkibi belgilanadi.<sup>6</sup> Tarkibiy jihatdan JKning 244<sup>1</sup>-moddasining dispozitsiyasida faqat "Diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan, qirg'in solishga yoki aholi orasidagi vahima chiqarishga qaratilgan materiallar" kabi holatlar sanab o'tilgan.

Shu tufayli Din ishlari bo'yicha qo'mitaning ekspert xulosasida "Jamoat havfsizligi va jamoat tartibiga taxdid soluvchi" deb keltirilgan bo'lsa, u moddaning dispozitsiyasi bilan mos kelmaganligi sababli, Jinoyat kodeksining 244<sup>1</sup>-moddasidagi jinoyat tarkibi yo'q deb baholanadi va jinoyat ishini qo'zg'atish rad etiladi.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 33-моддаси

<sup>3</sup> 2022 yil qabul qilingan Vazirlar mahkamasining 180-sonli "Diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish hamda dinshunoslik ekspertizasini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori.

<sup>4</sup> 2022 yil qabul qilingan Vazirlar mahkamasining 180-sonli "Diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish hamda dinshunoslik ekspertizasini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori.

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi

<sup>6</sup> A.Saidov, U.Tadjixanov, X.Odilqoriyev "Davlat va huquq nazariyasi" IIV Akademiyasi

Moddaning sarlavhasida “Jamoat havfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallar” degan atama mavjud bo’lishi moddaning mazmunan qaysi yo’nalishda ekanini ko’rsatadi. Biroq bu huquqiy belgilarni aniq bayon etmaganligi uchun dispozitsiya bilan moslashtirilmaganligi tufayli jinoyat tarkibini belgilay olmaydi.

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida vijdon erkinligi kafolatlangan. Shu bilan birga, so’z va e’tiqod erkinligi xalqaro konvensiyalar — BMTning Fuqarolik va siyosiy huquqlar to’g’risidagi xalqaro paktining 18- va 19-moddalari bilan ham mustahkamlangan. Ammo bu erkinliklar jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash maqsadida cheklanishi mumkin, degan norma ham mavjud. Shu bois diniy materiallar bo’yicha javobgarlikning mavjudligi xalqaro huquq tamoyillariga zid emas, ammo u shaffof, aniq mezonlarga asoslangan bo’lishi zarur.

**Natijalar:** Vazirlar mahkamasining 180-sonli qaroriga binoan ruxsat olmasdan taqiqlanmagan diniy adabiyot tarqatgan shaxslar bilan taqiqlangan kontent tarqatgan shaxslar bir xil sanksiyaga tortilmoqda.

**Xulosa:** O’zbekiston Respublikasi ma’muriy va jinoiy qonunchiligi diniy mazmundagi materiallar tarqatilishi bilan bog’liq xavf-xatarlarni kamaytirish bo’yicha yetarli huquqiy asos yaratgan. Biroq, Ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi kodeksning 184<sup>2</sup>-moddasida ikki qismga ajratish tizimi qonun ustuvorligini mustahkamlaydi, ruhsatsiz, lekin taqiqlanmagan diniy kontent tarqatgan shaxsga yengilroq jazo, taqiqlangan kontentlar tarqatgan shaxs uchun og’irroq jazo belgilanishi lozim.

### Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, 244<sup>1</sup>-modda.
3. O’zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi kodeksi,
4. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-apreldagi 180-son qarori.
5. BMT Fuqarolik va siyosiy huquqlar to’g’risidagi xalqaro pakti, 1966-yil.
6. A.Saidov, U.Tadjixanov, X.Odilqoriyev “Davlat va huquq nazariyasi” IIV Akademiyasi